

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№6**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 114 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.



#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....                       | 20  |
| <b>Malikov Numonjon Kamalovich</b>                                                                                                   |     |
| Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri .....                                                                | 26  |
| <b>Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova</b>                                                                                          |     |
| Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan ..... | 30  |
| <b>Iloxmonov Jaxongir Alisher o'g'li</b>                                                                                             |     |
| Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida .....                              | 39  |
| <b>Musinov Dilshod Sultanovich</b>                                                                                                   |     |
| Ways to improve quality in hotels through digital technologies .....                                                                 | 44  |
| <b>N.A. Rakhmonova</b>                                                                                                               |     |
| Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....                   | 48  |
| <b>Умаров Б. С.</b>                                                                                                                  |     |
| Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....                                             | 55  |
| <b>Ёдгоров Сардорбек Самадович</b>                                                                                                   |     |
| Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....                                                      | 61  |
| <b>Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdilhamid qizi</b>                                                             |     |
| Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges .....            | 67  |
| <b>Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li</b>                                                                                       |     |
| Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari .....              | 73  |
| <b>Xakimov Zoxid Norbo'tayevich</b>                                                                                                  |     |
| To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....                                                   | 78  |
| <b>I.F.Sayfiddinov</b>                                                                                                               |     |
| Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....                                                                   | 83  |
| <b>Artikov Ne'matulla Abdusalamovich</b>                                                                                             |     |
| Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan .....                                                                      | 86  |
| <b>Akmal Boymurodov</b>                                                                                                              |     |
| Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari .....         | 91  |
| <b>Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi</b>                                                                                             |     |
| В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров .....                      | 98  |
| <b>Суюнов Дилмурод Холмурадович</b>                                                                                                  |     |
| Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане .....                                                        | 104 |
| <b>Базарова Нигора Равшановна</b>                                                                                                    |     |
| Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....                    | 110 |
| <b>Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>                                                                                               |     |



## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TOMONIDAN HUDUD AHOLISI BANDLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY NATIJALARI

**Ergasheva Nigora Abdigapparovna**

Namangan davlat texnika universiteti

08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0006-9781-6066

E-mail: [ergashevarogin095@gmail.com](mailto:ergashevarogin095@gmail.com)

Tel: +998 99 699 29 20

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlash jarayoni, uning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari, mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, sohaga oid samarali rivojlanish yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** biznes tashabbusi, biznes subyektlari, mahalliy resurslar, mahalliy iqtisodiyot, ijtimoiy himoyaga muhtojlar.

**Abstract:** This article analyzes the process of ensuring regional employment by small business entities, its social and economic consequences, existing opportunities and problems. In addition, proposals and recommendations for further effective development of the sector are put forward.

**Key words:** business initiative, business entities, local resources, local economy, socially vulnerable people.

**Аннотация:** В статье анализируется процесс обеспечения занятости населения региона субъектами малого бизнеса, его социальные и экономические последствия, существующие возможности и проблемы. Также выдвигаются предложения и рекомендации по дальнейшему эффективному развитию отрасли.

**Ключевые слова:** предпринимательская инициатива, хозяйствующие субъекты, местные ресурсы, местная экономика, лица, нуждающиеся в социальной защите.

### KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri — kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy zaif toifadagi aholining — yoshlar, ayollar, mehnat bozorida raqobatbardoshlik imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligini ta'minlashda kichik biznes subyektlarining o'rni beqiyosdir. Davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham erishish mumkin. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, kichik biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari, moliyaviy resurslarga keng yo'l ochish, huquqiy kafolatlar yaratish orqali ularning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismi aynan kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, band aholining katta qismi aynan shu sohada faoliyat yuritmoqda.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi



PQ-5117-sonli<sup>1</sup> qarorida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bilan bir qatorda[1], tadbirkorlik salohiyatini yuksaltirish, aholining bandligini ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu esa kichik biznes faoliyatini nafaqat iqtisodiy, balki strategik ijtimoiy vazifa sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Bunda hududiy taraqqiyot masalasi alohida o'rin tutadi. Chunki har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslari turlicha bo'lgani sababli, mahalliy darajadagi biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali hududning iqtisodiy faolligini oshirish, aholining real daromadlarini ko'paytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash mumkin. Shu ma'noda, kichik biznes subyektlarining hududlardagi faoliyati nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki ijtimoiy muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalari jahon iqtisodiy adabiyotida 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng rivojlanib, bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallamoqda. Ushbu sohaning aholi bandligiga ta'siri borasida turli iqtisodchilar va tadqiqotchilar tomonidan nazariy asoslar ishlab chiqilgan. Avvalo, J. Klark va J.M. Keynesning mehnat bozori haqidagi nazariyalarida ish o'rinlari yaratishda kichik ishlab chiqaruvchilar va mahalliy biznes subyektlarining o'rni muhim deb belgilangandir. Ular iqtisodiy o'sish jarayonida ishsizlikni kamaytirish va iste'mol salohiyatini oshirishda kichik biznesning rolini alohida ta'kidlaganlar.

Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va O'ECDning so'nggi tahlillariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari rivojlanayotgan davlatlarda ish o'rinlarining 60–70 foizini ta'minlaydi. Xususan, kichik biznesning afzalliklari quyidagilar bilan izohlanadi[2]:

- Tezkorlik va moslashuvchanlik;
- Kam sarmoya bilan faoliyatni boshlash imkoni;
- Mahalliy resurslardan samarali foydalanish;
- Hududiy ehtiyojlarga tez javob berish qobiliyati.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari — Sh. Mahmudov, A. Hoshimov, M. Soliyeva va boshqalarning tadqiqotlarida kichik biznes nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil sifatida ta'riflanadi[3,4,5]. Ularning fikricha, kichik biznes orqali aholining zaif qatlamlarini ish bilan ta'minlash, ularning turmush darajasini oshirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Kichik biznes faoliyatining ijtimoiy natijalari haqida D. Bell va P. Druker o'z nazariyalarida ushbu subyektlarni faqat iqtisodiy struktura sifatida emas, balki jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi va inson salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi omil sifatida baholash lozimligini ta'kidlaganlar[6]. Ularning fikricha, kichik biznes orqali insonlar o'zini ro'yobga chiqaradi, mustaqil faoliyatga ega bo'ladi va shaxsiy tashabbuslari asosida iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Institutsional iqtisodiyot tarafdorlari esa kichik biznesni mahalliy iqtisodiyotdagi "stimullovchi kuch" sifatida ko'radi. Ularning fikricha, mahalliy darajada tadbirkorlik muhitining yaratilishi, biznes qonunchilik, moliya va soliq tizimidagi yengilliklar kichik biznes rivojini belgilab beradi. Shu sababli, hududiy rivojlanish strategiyalarida kichik biznesga alohida o'rin berilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli<sup>2</sup> qarorida ham zamonaviy bilimlar, xorijiy tillar va ishbilarmonlik salohiyatini oshirish bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash muhim maqsad sifatida belgilangan. Bu esa sohaga davlat darajasida strategik yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar statistik hisobotlar, hududiy bandlik markazlari bazalari, rasmiy davlat portalidagi ochiq ma'lumotlar hamda soha ekspertlari bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali olindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, guruhlash va grafik tahlil usullari orqali qayta ishlanib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan bog'liq xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarining hududiy iqtisodiyot va aholi bandligiga ta'siri ko'p jihatdan ularning tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat turi, ishlab chiqarish quvvati va bozor talablariga bog'liq. O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borayotgani va yangi ish o'rinlari yaratishdagi ishtiroki mamlakat iqtisodiyotidagi transformatsiya jarayonlarining asosiy natijalaridan biri sifatida baholanmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori: <https://lex.uz/en/docs/5426736>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori: <https://lex.uz/en/docs/5426736>



### 1. Hududiy kesimda kichik biznesning rivojlanishi

Misol uchun, Namangan viloyatida 2023-yil yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarining 87 foizini kichik biznes tashkil etgan. Ular orqali 20 mingdan ortiq doimiy ish o'rinlari yaratilgan. Ayniqsa, kichik tikuvchilik sexlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlar orqali hudud aholisini ish bilan ta'minlashda katta hissa qo'shilgan.

### 2. Aholining zaif qatlamlarini ish bilan ta'minlash

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes subyektlarida mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar orasida quyidagi ijtimoiy toifalar mavjud:

1-jadval. Kichik biznes subyektlarida band bo'lgan aholining zaif qatlamlari (2023-yil holatiga ko'ra, shartli ma'lumotlar):

| Zaif qatlam toifasi                          | Umumiy bandlar soni | Umumiy ulushi (%) |
|----------------------------------------------|---------------------|-------------------|
| Yoshlar (18–30 yosh)                         | 8 400               | 42                |
| Ayollar                                      | 7 400               | 37                |
| Ijtimoiy himoyaga muhtojlar                  | 2 400               | 12                |
| Boshqalar (nogironlar, pensionerlar va h.k.) | 1 800               | 9                 |
| Jami                                         | 20 000              | 100               |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlari orqali tashkil etilgan 20 000 doimiy ish o'rnining asosiy qismini aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari tashkil etadi. Bu esa sohaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Yoshlar (42%) – 8 400 nafar yoshlar faoliyat yuritayotgan bo'lib, bu umumiy bandlarning 42 foizini tashkil etadi. Bu holat yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etilayotgani, ularga ta'lim va kasbga yo'naltirish tizimining samarali ishlayotganini anglatadi.

Ayollar (37%) – 7 400 nafar ayol kichik biznesda band bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatda gender tengligi siyosati va ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishga qaratilgan dasturlar samarasi ekanini bildiradi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish, qo'l mehnati, to'qimachilik va savdo sohalarida ayollar ustunlik qilayotgani qayd etiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtojlar (12%) – 2 400 nafar muhtoj shaxsning ish bilan ta'minlangani davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratish orqali amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga bog'liqdir.

Boshqalar (9%) – 1 800 nafar fuqaro — nogironlar, pensionerlar, vaqtincha ishlashga layoqatlilar — kichik biznes orqali ishga joylashtirilgan bo'lib, bu holat kichik biznesning inklyuziv xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

### 3. Soliq tushumlari va mahalliy byudjetning barqarorligi

Kichik biznes orqali to'lanadigan soliqlar mahalliy byudjet tushumlarining 30–35 foizini tashkil etadi. Bu mablag'lar hisobiga infratuzilmani yaxshilash, ijtimoiy sohalarini moliyalashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Masalan, kichik biznesning rivoji sababli Namangan viloyatining Pop, Uchqo'rg'on va Chortoq tumanlarida yangi maktablar va bolalar bog'chalari qurilishiga mablag' ajratilgan.

### 4. Mehnat bozoridagi raqobat va samaradorlik

Kichik biznes subyektlarida ishlash ko'plab hollarda yirik korxonalarga nisbatan moslashuvchan va ko'p funksiyali mehnat muhitini yaratadi. Hodimlarning aksariyati bir nechta funksiyani bajaradi, malaka oshirish tizimi faol bo'ladi va shaxsiy salohiyat rivojlanishiga keng yo'l ochiladi. Bu esa mehnat unumdorligini oshiradi.

### 5. Kichik biznes faoliyatidagi muammolar

Shu bilan birga, sohada qator muammolar ham mavjud:

Moliyaviy manbalarga yetarli kirish imkonining cheklanganligi;

Soliq va hisob-kitob yuritishdagi murakkabliklar;

Mahalliy bozorlarda raqobat muvozanatining yetishmasligi;

Kadrlar yetishmovchiligi va malakasi past ishchi kuchi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali kichik biznesning bandlikka qo'shayotgan hissasini yanada oshirish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirish, balki aholining bandligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kambag'allikni kamaytirishning muhim omili sifatida shakllanmoqda. O'rganilgan statistik ma'lumotlar va adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ayniqsa hududiy rivojlanishda, yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlashda, mahalliy





resurslardan samarali foydalanishda, aholining zaif qatlamlarini iqtisodiy faol hayotga jalb etishda alohida rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Kichik biznes subyektlari orqali yaratilayotgan ish o'rinlarining katta qismi yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga to'g'ri keladi. Bu esa ularning hayot sifati va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mahalliy darajadagi bandlik siyosatini amalga oshirishda kichik biznes eng samarali vositalardan biri bo'lib, u nafaqat daromad manbai, balki jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va barqarorlikning kafolati sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Kichik biznes subyektlarining rivojlanishi mahalliy byudjetga soliq tushumlarini ko'paytiradi, bu esa ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi.

Kichik biznes orqali hududiy ehtiyojlar va ijtimoiy talablar tezroq aniqlanadi hamda mahalliy mehnat resurslari to'liq ish bilan ta'minlanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay biznes muhitini shakllantirish va aholining zaif qatlamlarini faol jalb qilish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ustuvor strategik yo'nalish bo'lib qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori: <https://lex.uz/en/docs/-5426736>
2. International Labour Organization (ILO). (2023). Small Matters: Global evidence on the contribution of small businesses to employment creation and decent work. Geneva: ILO Publications.
3. Mahmudov, Sh. (2021). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti.
4. Hoshimov, A. (2020). Iqtisodiyotda kichik biznesning tutgan o'rni va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: O'zR Iqtisodiyot va moliya vazirligi ilmiy jurnallari to'plami.
5. Soliyeva, M. (2022). "Kichik biznes subyektlarining mahalliy iqtisodiyotdagi ahamiyati." // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №2, 58–64-betlar.
6. Bell, D. (1973). The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>